Farg‘ona tumani Axborot - kutubxona markazi
Axborot - bibliografiya xizmati bo’limi

Serqirra ijodkor

“ Matbuotimiz fidoyilari ” rukni oztida. Fahriy jurnalist Sobirjon Dadaxo‘jayev haqida

Vertual sayohat

Fahriy jurnalist Sobirjon Dadaxo‘jayev

Faxriy jurnalist Sobirjon Dadaxo‘jayev hayoti faoliyatini o’rganish maqsadida ularning uylariga tashrif buyurib, dildan suhbat o’tkazdik. Suhbat jarayonida u qo’yidagilarni esladi

Sobir Dadaxo‘jaev Qobiljon o‘g‘li 1959 yilda Farg‘ona tumanidagi Mindon qishlog‘ida tug‘ilgan. 1980 yili Farg‘ona Davlat pedagogika institutining imtiyozli tamomlagan.

1993 yildan buyon Farg‘ona tumani hokimligining "Vodil yog‘dusi" gazetasining muharriri bo‘lib ishlab keladi. "Muhabbatim sizga", "Go‘zallikda tengi yo‘q maskan", "Yongan muhabbat", "Yaxshilar yaxshiligi", "Bir farzandingman, Mindonim!", "Qo‘rg‘ontepa desa…", "Zamondoshlar, ziyoratgoxlar, ziyorat…", “Farg‘onaning Farg‘onajoni” kabi kitoblar muallifi.

Jurnalist va adib "Yilning eng faol jurnalisti", "Eng ulug‘ va eng aziz", IV Xalqaro "Oltin qalam", "Jamiyat va men", “Inson huquqlari jurnalist nigohida”, BMTning "Yunesko" - Bolalar jamg‘armasi mukofotlari sohibi.

Farg‘ona tuman hokimligining “Vodil yog‘dusi” gazetasining ma’naviy-ma’rifiy mavzularga hamda milliy g‘oyamiz va qadriyatlarimiz targ‘ibotiga bag‘ishlangan tahliliy maqolalar, publitsistika va ocherklarni muntazam ravishda berib boriladi. Jumladan, gazetada chop etilgan “Olijanoblik”, “Boborahimovlar – polkovniklar sulolasi”, “Ana o‘sha erkak erur!”, “Oqsoqolning so‘zi - so‘zmi?”, “O‘zbekiston bolalari baxtli!” kabi maqolalar hamda

farg‘onalik jurnalistlarning Qoraqalpog‘iston Respublikasiga va boshqa viloyatlarga safarlari, “Chimyon” sihatgohidagi o‘quv mashg‘ulotiga doir sahifalari bugungi kunning eng dolzarb masalalari bilan chambarchas bog‘langanligi alohida e’tiborga va diqqatga sazovordir.

Jurnalist S.Dadaxo‘jaev 43 yildan buyon faoliyat yuritib keladi. U Respublika matbuotida o‘z maqolalari bilan qatnashib, qator tanlovlar g‘olibi bo‘lgan. Ijod mahsuli sifatida 10 ta kitob chiqarishga erishgan. Gazetani muntazam ravishda uch ming nusxadan ortiq adadda, A 2 hajmda, 4 xil rangda bosilishida hamda 2012-2015 yillarda gazeta tah’ririyati Parlament komissiyasi tasarrufidagi Jamoat fondi grantini qo‘lga kiritishda muharrirning munosib hissalari bor.

S.Dadaxo‘jaev "Vodil yog‘dusi" gazetasining muharriri lavozimida 1993 yildan buyon ishlab kelmoqda. Uning tinimsiz mehnati samarasi o‘laroq tumanda ommaviy axborot vositalari bo‘yicha ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Gazeta sahifalarida ma’naviy-ma’rifiy maqolalar yoritishda, aholini matbuotga qiziqishini oshirishda, ayniqsa Prezidentimiz, Hukumatimizning Farmon va Qarorlari mazmun mohiyatini aholiga gazeta orqali etkazishda mehnat qilmoqda.

Mustaqil diyorimizning bugungi ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi yutuq va yuksalishlarini keng yoritishga

amaliy hissa qo‘shmoqda. U o‘z ishining fidoiysi, jonkuyar rahbar, katta-kichik o‘rtasida hurmat qozongan.

1993 yildan Jurnalistlar ijodiy uyushmasi a’zosi.

2009 yilda Respublika jurnalistlar ijodiy uyushmasining xalqaro “Oltin qalam” mukofoti sohibi bo‘lgan.

Mehnat faoliyati 43yil, muharrirlik lavozimda 1993 yildan buyon ishlamoqda.

S.Dadaxo‘jaev viloyatning eng qalami o‘tkir jurnalistlaridan biri. Mustaqil fikrli, keng dunyoqarashga ega. Fidoiyligi, tashabbuskorligi, rahbarlik qobiliyati bilan qalam ahli o‘rtasida hurmat qozongan. Tahririyatdagi jamoaga rahbarlik qilib, gazetani o‘qimishli, sifatli, rang-barang bo‘lishida jonbozlik ko‘rsatadi. Uning samarali mehnati natijasida tuman gazetasi viloyatda o‘z mavqeiga ega bo‘lib, Respublika, viloyatning turli tanlovlarida g‘oliblikni qo‘lga kiritmoqda.

S.Dadaxo‘jaevning ijodiy ishlari har qanday tanlovlarda g‘olib bo‘lib, sovrinli o‘rinlarga sazovor bo‘lgan.

Mohir jurnalist mehnat faoliyati davomida ko‘plab shogirdlar etishtirgan. Mehnatsevarligi, tashkilotchiligi bilan o‘zi istiqomat qilayotgan mahalladagi har bir tadbirda, tumandagi

tashkilotchilik ishlarida sidqidildan faoliyat ko‘rsatadi.



Sobirjon Dadaxo‘jayev Farg‘onalik jurnalistlar bilan Turkiya safarida bo‘lib AHMAD LUTFIY QOZONCHI BILAN UCHRASHUV "Saodat asri qissalari" deb nomlangan 4 tomlik kitobi bilan butun dunyoga saodat ulashgan, jahon kitobxonlari mehrini qozongan 93 yoshli yozuvchi Ahmad Lutfiy Qozonchi bilan uchra shuvda bu inson 27 marta "Alloh rozi bo‘lsin!", 16 marta "Tashakkurlaringiz" so‘zlarini samimiy takrorlab o‘tdi. Darhaqiqat, Turkiyaning, butun insoniyatning taniqli yozuvchisi Ahmad Lutfiy Qozonchi farg‘onalik jurnalistlarni qabul qildi. Juda ham ma’nili, ma’naviy suhbat bo‘ldi. “Farg‘ona haqiqati” gazetasining muxbiri Muattar Mahmudova yozuvchidan katta intervyu oldi. Uni yaqin kunlarda “Farg‘ona haqiqati”

gazetasida o‘qiysiz. Yozuvchining e’tirof etishicha, qabulga kelgan hech bir jurnalist lar bilan bugungidek ochiqlik, samimiyat va ma’nili suhbat bo‘lma gan. SHuning uchun ham bemorligiga qaramay bir yarim soat davomida uni anchayin o‘ylantiradigan savollarga javob berdi. Mashhur yozuvchi Ahmad Lutfiy Qozonchi ustozning Bursadagi uyida ilohiyot va hayot haqiqati haqida juda qiziq suhbat bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zamondoshlar, ziyoratgohlar, ziyorat. [Matn] // tahrir hay’ati: Sobirjon Dadaxo‘jayev/ .

- Farg‘ona nashriyoti. 2006 - 149 b

Tuzuvchilar:

Axborot – bibliografiya xizmati mutaxassisi:
D.Alobidinova

H.Mirzaaxmedova